

MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

Dotsent, Phd Umirov Abdusalom Turayevich

Toshkent moliya instituti

Xalilova Jasmina Davron qizi

Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning zamonaviy masalalari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish hamda investitsiya siyosatini amalga oshirishda bizningcha maqbul bo‘lgan tamoyillar haqida takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investitsiya siyosati, xorijiy investitsiya, modernizatsiyalash, transmilliy kompaniya, investitsion strategiya, texnika va texnologiya, tabiiy resurs, mehnat resursi.

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish, rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu, avvalambor, aholi bandligi, uning daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Toshkent xalqaro investitsiya” forumida nuqt davomida quyidagicha ta’kidladi: “Har bir kelgan mehmonlarimizga (investorlarga qarata) ishlaringizning kelajagini ta’minlash uchun sharoit yaratishga men ham, hukumat ham kafolat bermoqchiman. Sizlar bilan muloqot qilib, ko‘p narsani o‘zgartirib, qonunlarni mustahkamlab, korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashib, birgalikda manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yamiz... Sizlarning mamlakatimizdagi muvaffaqiyatingizni ta’minlash O‘zbekiston prezidenti va hukumati tomonidan kafolatlanadi”[1].

Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy va moliyaviy tomondan rag‘batlantirish, ularga zaruriy sharoitlarni yaratib berishni davlat siyosati darajasida ko‘tarish har jihatdan maqbul yo‘l hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Maqolada mamlakatda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati haqida ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqot doirasida shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatda investorlarining innovatsion-investitsion faolligini oshirish, investitsion muhit

jozibadorligini ta'minlash hamda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Iqtisodchi E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, M.S.Aliqulovlar investitsiya loyihalarini amalga oshirishning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sirini quyidagicha izohlashadi: "Investitsiya resurslarini o'z vaqtida milliy iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyati bo'lmagab, pul mablag'lari tanqisligini boshidan kechiryotgan davlatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dunyo mamlakatlari darajasidan ancha orqaga qolib ketishiga olib keladi"[2].

"Mahalliy tabiiy xomashyo va inson resurslari bilan bog'liq bo'lgan chet el investitsiyalari, davlatning tez iqtisodiy o'sishi uchun makro va mikro darajadagi investitsion funksiyalarni bajaruvchi katalizator vazifasini bajaradi. Xorijiy investorlar mamlakatga xorijiy investitsiyalar kiritish bilan birga, rivojlangan bozor elementlari ya'ni yuqori sifatli menejment, boshqaruv tajribasi, marketing, innovatsion resurslar, axborot texnologiyalari, hamkorlikning xalqaro standartlari bilan tanishish, o'rnatilgan aloqalar va savdo yo'nalishlari orqali jahon bozoriga chiqish imkonini ham beradi" deb xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ahamiyati haqida L.S.Zoyirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, S.B.Yunusovalar o'z ilmiy ishlarida bayon qilishgan[3].

B.Mamatov, D.Xujamkulov va O.Nurbekovlar o'z ilmiy ishlarida "Bir vaqtning o'zida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish qator ijobiy samaralar keltiradi. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish raqobatdosh mahsulotlarga, zamonaviy ishlab chiqarishga yuzma-yuz kelish, talabga muvofiq sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir"[4] deb ta'kidlashdi hamda xorijiy sarmoyadorlar bilan amaliy hamkorlik o'rnatish orqali jahon amaliyotida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish asosida ko'plab erishish mumkin bo'lgan samaradorliklar haqida fikr mulohazalar bildirishadi.

Tahlil va natijalar

Mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiyalarni kiritmasdan turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- mahalliy ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning joriy etilishi ta'minlanadi;
- respublika iqtisodiyoti uchun yangi bo'lgan zamonaviy kasblar paydo bo'ladi, qo'shimcha va yangi ish o'rinlari tashkil etiladi, iqtisodiyotda bandlar soni ko'payib, aholining daromadi o'sadi;

- aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati oshadi;
- eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish kengayadi. Bu esa, o'z navbatida, valyuta tushumining oshishiga olib keladi;
- import o'rnini bosuvchi tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yiladi (valyuta chiqib ketishining oldi olinadi);
- korxonalar va tashkilotlarning ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari iste'moldan chiqib, moddiy texnik bazasi yangilanadi, resurslar unumdorligi oshadi.

Shularni e'tiborga olib, mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, real sektor korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ustuvorlik qaratilmoqda. Buning uchun, eng avvalo, mamlakatning investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash talab etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasining guvohlik berishicha, chet el investitsiyalarining iqtisodiyotga jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy topishida hal qiluvchi omil vazifasini o'tagan.

Dunyoda investitsiyalarni joylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha raqobat shiddat bilan davom etmoqda. Bir tomondan, transmilliy kompaniyalarning rivojlanib borayotganligi, ikkinchi tomondan, resurslarga egalik qilish borasida bozorlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq tadbirlarning faollashuvi, uchinchi tomondan, globallashtirish sharoitida jahonni qurshab olgan moliyaviy inqirozning yuqori ta'siri, siyosiy vaziyatlarning nobarqarorligi kabi omillar investorlarning qarorlarida hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Kelajakda ma'lum bir foydani ko'zlab harakat qilayotgan investor o'z mablag'ining tegishli qismini bugunning o'zida qurbon qilish bilan bog'liq tavakkalchilikka qo'l uradi. Buning uchun investor xalqaro maydonda yuz berayotgan vaziyatni, investitsiyalar bozorida ro'y berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy tendensiyalarni tahlil qilishi, iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida hukumatlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni kuzatib borishi talab etiladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining asosan **uch turkumini** ajratib ko'rsatish mumkin.

Ichki sabablar:

- ❖ investitsiya muhitidan foydalanish;
- ❖ boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish;
- ❖ zamonaviy va eng qulay tartibga erishish;
- ❖ mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
- ❖ xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish;

- ❖ ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish;
- ❖ xodimlar malakasini oshirish.
- ❖ tashqi sabablar:
- ❖ jahon bozoriga chiqish;
- ❖ sog‘lom va samarali raqobat muhiti;
- ❖ siyosiy keskinlikning yumshashi;
- ❖ mahalliy hokimiyatning talablari.

Strategik sabablar:

- ❖ mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati;
- ❖ mustahkam xom ashyo bazasiga ega bo‘lish;
- ❖ texnologiyalar transferti;
- ❖ ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalarni import va eksport qilishning yagona sababi korporatsiyalarning (investorlar) daromadini oshirish hamda risklarni pasaytirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarning faollashuviga transmilliy kompaniyalar (TMK) iqtisodiy samaradorligi va foyda normasining oshishi ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar eksporti va importiga ta’sir ko‘rsatadigan makroqisodiy sabablarga quyidagilarni keltirish o‘rinlidir:

- jahon xo‘jaligi subyektlariaro moliyaviy, mehnat va material resurslarning notekis taqsimlanganligi;
- tabiiy-ekologik shart-sharoitlarning turlichaligi;
- real kapital resurslarining bir hududda me‘yoridan ortiqcha
- to‘plangani, boshqa hududlarda esa yetishmasligi;
- moliyaviy mablag‘larning to‘planib qolgani;
- jahon davlatlarida investitsion sharoit va uni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosatlarining turlichaligi.

Yuqorida qayd etilganidek, ayni damda xorijiy investitsiyalarning bir davlatdan ikkinchi davlatga import va eksport qilish hissasi ko‘proq TM kompaniyalar va TM banklarga to‘g‘ri keladi. Ular tomonidan yangi iste‘mol bozorlarini egallash, xom ashyo va mehnat resurslari bozoriga yaqinlashish ishtiyoqi yuqoriligi sabab kapitalning harakati sodir bo‘ladi. Kapitalni eksport qilishning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish o‘rinlidir:

1. Texnologik jihatdan birinchi bo‘lishga intilish. korporatsiyalar tomonidan ilmiy-texnika va fan yutuqlariga ko‘proq mablag‘ ajratgan holda sotuv hajmini kengaytirish, yuqori texnologiyalarni yaratish va ishlatish bo‘yicha birinchilikni qo‘ldan boy bermasdan turib ildam mavqega ega bo‘lish. Bunday xarajatlarning umumiy xarajatlardagi ulushining yuqori bo‘lishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar eksporti hajmining ko‘p bo‘lishini yoki aksincha ekanligini ta‘minlaydi.

2. Ishchi kuchi salohiyati va malakasi. Ushbu omilni aniqlashda mehnatga to‘lanadigan haqning darajasi, qiymati hisobga olinadi. Korporatsiyalarda mehnatga to‘lanadigan ish haqining yuqoriligi investitsiyalar eksporti hajmining o‘shirishini ta‘minlaydi.

3. Reklamani amalga oshirishda ustuvorlikka ega bo‘lish. Korporatsiyalarning reklamaga yo‘naltirayotgan xarajati bilan korporatsiyaning sotuv hajmi va TTX investitsiyalarni eksport qilish o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

4. Masshtab samarasi. Dastlab korporatsiyalar ichki bozorning ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z imkoniyatlarini maksimal ravishda ishga soladi (masshtab samarasidan foydalangan holda), undan keyin esa, bo‘sh mablag‘larni daromad olishni ko‘zlab chetga eksport qiladi. shuning uchun ham korporatsiyaning ichki (milliy, mahalliy) bozorlarda ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, chetga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni eksport qilish hajmi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

5. Korporatsiyaning o‘lchami. korporatsiyaning o‘lchami (katta-kichikligi) bilan investitsiyalar eksporti hajmi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

6. Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi. Ma‘lum bir tovarni ishlab chiqarish bo‘yicha konsentratsiyalashuv darajasining yuqori bo‘lishi (korporatsiyalar kesimi bo‘yicha) shunchalik darajada to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar eksportining ham yuqori bo‘lishidan darak beradi. Ular o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

7. Tabiiy resurslarga egalik qilish darajasi. korporatsiyalarning biror bir tabiiy resursga bo‘lgan ehtiyojining yuqoriligi tufayli, ushbu resursga ega bo‘lgan davlatlarga investitsiyalarning kirib kelishi ko‘payadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, investitsiyalarni eksport qilishga sabab bo‘ladigan omillarning bir qismi: texnologik jihatdan birinchi bo‘lishga intilish; ishchi kuchining malakaviy darajasi; reklamani amalga oshirishda ustuvorlikka ega bo‘lish; masshtab samarasi; korporatsiyaning o‘lchami; ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi kabi omillardan tashqari quyidagi omillar investitsiyalar importiga ta‘sir ko‘rsatadi:

- *Kapitalga bo‘lgan ehtiyoj.* korporatsiyalarning kapitalga bo‘lgan ehtiyoji, hajmi va investitsiyalar importi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

- *Milliy filiallarning hajmi.* Respublika ichida korporatsiya filiallarining, ularga bo‘ysunuvchi bo‘linmalarning ko‘p bo‘lishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar importi hajmining ham yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi.

- *Ishlab chiqarish xarajati.* Qabul qiluvchi davlatda ishlab chiqarish xarajati darajasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar importi hajmi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Ichki tovarlar bozorining xavfsizlik darajasi. Ichki tovarlar bozorining yuqori muhofazasi (bojxona tariflarini tartibga solish orqali) investitsiyalar importi oqimining ko‘payishiga olib keladi.

• *Bozor hajmi.* Mamlakatning ichki bozor hajmi bilan investitsiyalar importi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

• *Boshqa omillar.* To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga sanoatning eskportga ixtisoslashganligi, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlarining mavjudligi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi. Globallashuv sharoitida investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy naflik, balki ijtimoiy naflik ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. korxonalarining investitsion faoliyatini rivojlantirish istiqbollari investitsion dastur doirasida hamda alohida ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Investitsion loyihalar turli shakl va mazmunga ega bo'lib, ular korxonalarini barpo etish, turli obyektlarni qurish, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'li bilan radioelektronika, elektronika sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilishi iqtisodiyotning yuqori sanoatlashganligi belgisi hisoblanadi. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta'minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish uchun texnika va texnologiyalarni, ya'ni asosiy vositalarni ishlab chiqaradigan tarmoqlarni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning talabi va jahon iqtisodiyotida o'z o'rnimizga ega bo'lishning zaruriy omilidir.

Yillar o'tgani sayin potensial investorlarning holatiga ta'sir ko'rsatadigan omillar rivojlanib bordi. Bizning nazdimizcha, bugungi globallashuv sharoitida qo'shimcha sifatida quyidagi muhim omillar ham investitsion jozibadorlikka yetarlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bular: mamlakat/hududning iqtisodiy tizimi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, iqtisodiyotning tarkibi va b.), tabiiy resurslarning holati, infrastrukturaning rivojlanganligi, tashqi savdoning rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ishtiroki.

Xulosa

Muxtasar qiladigan bo'lsak, investitsiya siyosatini amalga oshirishda hukumat tomonidan quyidagi asosiy tamoyillarga ustuvorlikning qaratilishi, bizningcha, eng maqbul yo'l hisoblanadi:

– respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'larni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

- respublikamizda jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish tizimini takomillashtirish;
- mablag‘larni raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda raqobat qila oladigan va valyuta tushumini ta‘minlaydigan yetakchi tarmoqlarni qo‘llabquvvatlash;
- aholi bandligini ta‘minlaydigan va milliy daromadni oshirishga qaratilgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarini rivojlantirish;
- energiya tejamkor va atrof muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamonaviy uskunalarni o‘rnatish;
- mahalliy sharoitlarga mos keladigan ilg‘or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o‘zimizda yaratilayotgan ixtirolarni rag‘batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag‘lar yo‘naltirish.

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalarni umumlashtirgan holda ta‘kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda davlatning o‘rta va uzoq muddatli oraliqdagi investitsion strategiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi, bizning fikrimizcha, eng samarali yo‘l hisoblanadi:

- milliy iqtisodiyotning yuqori sur‘atdagi raqobatdoshligini ta‘minlashga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirish;
- iqtisodiyotning import va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan, shuningdek, yuqori qo‘shimcha qiymat yaratadigan yetakchi ustuvor tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash;
- mintaqaviy infrastruktura sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor investitsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- mahalliy va chet el investorlarining innovatsion-investitsion faolligini oshirish maqsadida investitsion muhit jozibadorligini ta‘minlash;
- yuqori texnologiyalarga asoslangan va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratadigan qo‘shma loyihalarni tashkil etishga xizmat qiladigan qulay biznes-muhitini yaratish;
- inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan va bugungi kunda BMT tomonidan davlatlarning ko‘p qirrali rivojlanishiga berilayotgan baholardan biri sifatida Inson taraqqiyoti indeksining yuqori bo‘lishligiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev, 24.03.2022, <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/24/mirziyoyev/>.
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish: Darslik. 1-qism / E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeve, M.S.Aliqulov; - T.: <<Iqtisod-Moliya>>,2020.-168b.
3. Investitsiya: Darslik / L.S.Zoyirov, Sh.Sh.Asamxodjayeve, S.B.Yunusova; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 652 b.

4. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. B.S.Mamatov, D.Yu.Xujamkulov, O.Sh.Nurbekov. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 608-bet.

